



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ENG RIVOJLANGAN TILLARNI TARQALISHI VA RUS TILINI O‘RGANISH

Akbarxon Nasriddinov

SamDTU Farmatsiya fakulteti 1-kurs talabasi

Dilnoza Mamanova

*Ilmiy rahbar: SamDTU O‘zbek tili va adabiyoti,
rus tili bilan kafedrasi assistenti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tillarning jahon tili darajasiga ko‘tarilishiga bog‘liq sabablar o‘rganilgan. Rus tilini o‘rganishda nimalarga ahamiyat berish kerak va qancha vaqtida tabiiy gapiruvchi bo‘la olish haqida nazariy va amaliy jihatdan munosabat bildirib, tahlil va tadqiq qilingan. Yangi til o‘rganishda uchraydigan xatoliklar va samarali yo‘llar qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek ularning asosiy sabablari va ba’zi yechimlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Til, o‘zbek tili, o‘zga tillar, rus tili, jahon tili, o‘rganuvchi, samardorlik, metod, usul, o‘lik til.

Аннотация. В данной статье рассматриваются причины подъема языков до уровня мирового языка. Чему следует придавать значение при изучении русского языка и сколько времени нужно, чтобы стать его естественным носителем, теоретически и практически рассмотрено, проанализировано и исследовано. Сравниваются ошибки и эффективные способы изучения нового языка. Также представлены их основные причины и некоторые пути решения.

Ключевые слова. Язык, узбекский язык, иностранные языки, русский язык, мировой язык, обучающийся, эффективность, метод, метод, мертвый язык.

Abstract. This article examines the reasons for the rise of languages to the level of world languages. Theoretical and practical approaches to what should be paid attention to when learning Russian and how long it takes to become a native speaker are analyzed and researched. Mistakes and effective ways of learning a new language are compared. Their main causes and some solutions are also presented.

Keywords. Language, Uzbek language, other languages, Russian language, world language, learner, efficiency, method, method, dead language.

Dunyoda kishilar aloqa va axborot almashinishi uchun juda ko‘p tillar mavjud. Ularning ba’zilaridan keng omma foydalansa, ba’zilaridan kichik bir shaharcha yoki qabilalar kishilari foydalanadi. Shu jihatdan tillar foydalanuvchi kishilarning ko‘p va kamligi jihatidan turli darajalarga bo‘linadi.

Bugungi kunda jahon tili darajasiga chiqqan va o‘rganuvchilarining soni jihatidan yuqori pog‘onalarni egallagan tillar mavqeyi oshib bormoqda:





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



- Ingliz tili - bugungi kunda dunyodagi eng keng tarqalgan til. Uning tarqalishi boshqa davlatlarni kolonizatsiya qilish va AQSHning global ta’siri bilan bog‘liq. Ingliz tili xalqaro til sifatida ilm-fan savdo va turizmda keng qo‘llaniladi.
- Xitoy tili – dunyodagi eng ko‘p muloqotchilariga ega til. Uning tarqalishi asosan Xitoy aholisi sonining ko‘pligi, iqtisodiy jihatdan keskin suratlarda o‘sganligi, iyerogliflarni o‘rganishning murakkabligi va tarixiy muhumligi uni yuqori darajaga ko‘tarilishiga sabab bo‘lmoqda.
- Arab tili – dunyoda eng ko‘p aloqa almashiniladigan hamda diniy nuqtayi nazardan keng tarqalgan til. Uning tarqalishi Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi arab davlatlarining keng tarqalishi bilan bog‘liq.
- Ispan tili – ingliz tilida gaplashuvchi Yevropa davlatlari va Amerika Qo‘shma Shtatlari, Meksika, Kanada, Avstraliya hududidagi kishilari uchun ikkinchi til hisoblanadi. Uning tarqalishi Ispaniya kolonizatsiyasi va Lotin Amerikasi aholisining ko‘pligi bilan bog‘liq.
- Hind tili – Hindistonda aholi soni va zichligi tasirida kishilararo qo‘llaniladigan til. Uning tarqalishi hindistonliklarning migratsiyasi va atrofidagi hududlarga ham bu tilning tushunarli bo‘lgani bilan bog‘liq.

Katalan tili – Valensiya nomi bilan ham tanilgan, roman tillarining iber-roman guruhiga mansub tildir. Bu tilda Kataloniya deb ataladigan mamlakatlarda: Ispaniya, Fransiya, Andorra va Italiyada 11 millionga yaqin kishi so‘zlashadi. Katalon tili Ispanchadan farq qiladi. Haqiqiy katalonlar ispan tilini tan olishmaydi. Shuningdek dunyoda portugal, fransuz, rus va nemis tillari ham keng tarqalgan. Osiyoda esa tarqalish darjasini yuqori bo‘lmagan tillar: turk, o‘zbek, ozarbayjon, tatar, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, chuvash shuningdek, bir qator o‘lik tillar [turkiy tillar](#) oilasini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasida rus tili, ikkinchi til hisoblanadi va bu tilni o‘rganish ushbu hududda yashovchi kishilar uchun bilishi lozim bo‘lgan til sanaladi. Rus tilini o‘rganish qancha vaqt sarflanadi va umuman til o‘rganishda nimalarga rioya qilish kerak? O‘zbek tilini biluvchi va so‘zlashuvchi, rus tilidan bexabar kishilarning rus tilini o‘rganish uchun qancha vaqt va kerakli qismlar zarurligini quyidagi boshqichlarga bo‘lamiz:

1-bosqich - Boshlang‘ich daraja (A1): o‘zbek tilida so‘zlashuvchi kishi rus tilining grammatikasi va leksikasiga moslashishi uchun dastlabki bosqichda taxminan 3-5 oy davomida muntazam ravishda o‘qish, tinglash, yozish mashqlarini va shu bilan birgalikda gapirish ko‘nikmasini oshirish borishi kerak. Bu ko‘rsatilgan muddatda asosiy grammatik qoidalar va so‘z boyligini o‘rganib olish mumkin.

2-bosqich – O‘rta daraja (A2): rus tilida erkin gaplashish, soddalashtirilgan matnlarni tushunish va o‘qish uchun 6-8 oy davomida mutassil o‘rganish talab etiladi.

3-bosqich – Yuqori daraja (C1, C2): Yuzaga kelgan murakkab mavzularni tushunish va chuqur o‘zlashtirish uchun kamida 1-1.5 yil kerak bo‘ladi. Hayotiy misol, mening o‘zim 1-sinfga borganimda rus tilini umuman bilmaganman. Lekin bu til o‘rganish uchun fan





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



sifatida kiritilgandan so‘ng hech qanaqa qo‘sishimcha darslarsiz o‘rganganman, bunga asosiy sababchilar: otam-onam va ustozim hisoblanadi. Ularning menga bergen ta’limi va o‘zimning qiziqishim va tirishqoqlik bilan harakat qilganim mehnati natijasida amalga oshdi.

O‘rganishda qanday samarali usul va metodlardan foydalanish mumkin? Grammatika va so‘z boyligini o‘zlashtirish: Rus tilidan o‘zbek tiliga matn tarjima qilishda, grammatick tafovutlarni tushunish muhim. So‘z boyligini o‘stirish uchun repetitiv (takror va takror) o‘rganish usulidan foydalanish samarali. Yangi so‘zlarni va iboralarni kundalik mashg‘ulotlarda qo‘llash tilni tez o‘zlashtirishga yordam beradi.

Tinglash va muloqot qilish: Tilni o‘rganishda samarali usullardan biri bu filmlar ko‘rish, audiokitoblar, qo‘shiqlar eshitib o‘rganish mumkin. Yuqorida keltirgan fikrlar tilning so‘zlashuvdagagi ohangini, urg‘usini va joriy iboralarni tushunishga yordam beradi. Faqatgina shular bilan to‘xtab qolmay davomiy muloqotda ham bo‘lish zarur. Har kuni rus tilida yoki o‘rganayotgan tilingizda kichik suhbatlar olib borish, yangi so‘zlar va iboralarni ishlatish, tilni “tashqarida” qo‘llash yaxshigina samara beradi. Qolaversa, axborot asrida interaktiv dasturlar va platformalar orqali so‘z boyligini kengaytirish, o‘z xatosini topish, doimiy suhbatdoshga ega bo‘lib tilning asosiy qoidalarini mustahkamlash tilni yanada yaxshi o‘rganishga yordam beradi.

Maxsus til mutaxassislaridan oflayn yoki onlayn kurslar yordamida o‘qish foydali bo‘ladi. Bu individual yondashuv orqali tushunish va tushuntirish jarayonini tezlashtiradi.

Umuman olganda, rus tilini o‘zbek tilida so‘zlashuvchi kishilar o‘rganishi, to‘g‘ri usul va metodlarni tanlab, muntazam va qiziqarli mashqlar orqali osonlashtirilishi mumkin. Qanchalik ko‘p amaliyat va til bilan muloqot qilishga harakat qilinsa, o‘zlashtirish jarayoni shunchalik tez va samarali bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Choriyev.T. O‘zbek tili, o‘quv qo‘llanma. Iqtisod-Moliya. T.; 2008
2. Turdiyeva.K. O‘zbek tili, o‘quv qo‘llanma. Musiqa nashriyoti.T;2007
3. Маманова, Д. (2024). Значение и методические концепции преподавания узбекского языка иностранных студентов. *in Library*, 2(2), 529-525.
4. Маманова, Д. (2024). Использование современных методов при преподавании медицинских терминов иностранным студентам в медицинских вузах. *in Library*, 2(2), 313-315.
5. Irgasheva, D. M. (2024). MANUAL FEATURES OF WORDS DENOTING A SIGN IN THE CATEGORY OF ADJECTIVES. *Results of National Scientific Research International Journal*, 3(4), 170-174.
6. Maxsudjonovna, I. D., & Abdumanonovna, A. P. Philology as the Art of Understanding. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, (2), 1-3.

